

мәселесине келсек, ол жәмийетлик-сиясий лексиканың бир бөлими болып, бирақ жәмийетлик-сиясий лексика хәм жәмийетлик-сиясий терминология арасындағы шегара елге шекем анық емес. Бул ҳақындағы пикир таласлары илимпазлар арасында еле даўам етпекте.

ӘДЕБИЯТЛАР

1. Жданова Л.А. Общественно-политическая лексика: структура и динамика: автореф. ... канд. филол. наук. - М.: 1996.
2. Чудинов А.П. Политическая лингвистика: учеб. пособие. М.: 2006. - С.14.
3. Филкова П.Д. История русского литературного языка (середина XVIII – начало XX в.) [Электронный ресурс] / А.А.Градинарова, П.Д.Филкова. URL: <http://www.actalinguistica.com/docs/site/manual.pdf>.
4. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 1988; Усмонов А.Н. Ўзбек тилида термин ясовчи фаол аффикслар. – Тошкент, 1991 – Б. 79.; Қосимов Н. Функциональные особенности аффиксов в узбекской технической терминологии. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Тошкент, 1979 – 46 с.; Палуанова Х.Д. Инглиз, ўзбек, рус ва қорақалпоқ тилларида экологик терминларнинг деривацион-семантик принциплари. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – Б. 149.; Аҳмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – Б. 238.; Ҳасанова Д.О. Арабча луғавий ўзлашмаларнинг ўзбек тили номинатив ва дериватив тизимидаги ўрни. Филол. фан. ном. ...дис.автор. – Тошкент, 2011. – Б. 10.
5. Протченко И.Ф. Русский язык: проблемы изучения и развития. М., 1984. – С. 58.
6. Дешериев Ю.Д. Влияние социальных факторов на функционирование и развитие языка [Электронный ресурс] / Ю.Д.Дешериев, М.В.Панов, Э.Г.Туманян и др. М., 1988. URL: http://is.muni.cz/th/108957/ff_r/PhDr.pdf.
7. Токарева И.В. Аспекты терминологизации немецких лексических заимствований (сущность дефиниции терминопонятия «общественно-политическая лексика») // Актуальные вопросы филологических наук: материалы междунар. заоч. науч. конф. (Чита, нояб. 2011 г.). Чита, 2011. – С. 135.
8. Солтаханов И.Э. Становление и развитие общественно-политической лексики в нахских литературных языках: автореф. ... канд. фил. наук. - М.: 2009. – С. 15.
9. Розенталь Д.Э. Язык и стиль средств массовой информации и пропаганды. - М.: 1980. – С. 26.

Резюме: В статье рассматривается общественно-политическая лексика на современном этапе, описываются периоды ее становления в истории русского языка, исследуются ее особенности и структурные компоненты, прослеживается связь общественно-политической лексики и общественно-политической терминологии. На материале СМИ выявлены некоторые особенности данного пласта лексики.

Таяныш сөзлер: *жәмийетлик-сиясий лексика, жәмийетлик-сиясий терминология, идеология, сиясий тил, публицистика, галаба хабар қураллары.*

JORJ ELIOT ASARLARIDA AYOL MUAMMOSI ELIOTSHUNOSLAR TALQINIDA

Muxammedova X. E.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Asli ismi Meri Evans bo'lgan Jorj Eliot (1819-1880) viktorian asrining mashhur adibalaridan biri xisoblanadi. Uning ijodini o'rgangan eliotshunoslar qolaversa tanqidchilar uni “voice of century- asr ovozi” deb e'tirof etishadi. Jorj Eliot ijodini o'rganishlar zaminida adiba nisbatan turli xil qarash va yondashishlar mavjud. Opa-singil Brontelar kabi Jorj Eliot ijodi am tanqidchi va adabiyotshunoslar tomoidan qizg'in muxokama qilingan. Ingliz tanqidchi va adabiyotshunosi Jorj Levin dastlab adiba taxallusli ijodkor deb atalganiga to'xtaladi va uning ovozi o'z davrida asr ovozi bo'lganligiga e'tibor qaratadi [16, 40]. Shu bilan birga uning asarlari viktorian davr yo'zuvchilaribilan ayrim o'xshashliklar mavjud bo'lganligini ijobiy baxolaydi. Tanqidchi F.Lewis 1948 yilda yozgan “Buyuk an'analar” asarida Jorj Eliot va uning ijodida davr an'analari “provincial life-qishloq hayoti” misolida ochib berilganligini ta'kidlaydi. Jorj Eliot ijodini o'rgangan tadqiqotchilarni biz bir necha guruhga ajratib tahlil qilishni ma'qul ko'rdik. Birinchi guruh tadqiqotchilar adibaning ijodini avtobiografiyasi bilan uyg'unlikda ochib berishdi. Jumladan R.Bodenxaymer, V.Dodd, M.Larski, R.Ruby, J.Uglov, R.Ashton, H.Lewis, K.Xyus kabilar uning ijodini keng talqin etishga harakat qilishdi [4, 9, 17, 21, 25, 2, 18, 11]. Ikkinchi guruh tadqiqotchilar jumladan Byat A, Hayt J, Harris M, Pinney T kabilar esa adibaning yozgan xatlari va essay-insholari qolaversa adiba faoliyat yuritgan jurnallariga to'xtalishdi[5, 12, 13, 19]. Uchinchi guruh tadqiqotchilarini biz Jorj Eliot va adabiy tanqid deb baholashni ma'qul ko'rdik. Endilikda tadqiqotchilar uchun adibaning biografiyasi hamda uning xatlari, insholaridan ko'ra Jorj Eliotga ijodiga bildirilgan adabiy tanqid va davr muhitini baholash muhim ahamiyat kasb etdi. Adabiy tanqidlar asosan adibaning ijobiy namunalari bilan bo'lgan “Flosdagi tegirmon”, “Middlemarch”, “Daniel Deronda”, “Diniy hayotdan lavhlar”, “Feliks Holt, the Radical” kabi asarlariga bildirildi. Kerol D, Hardi B, Stuart H, Pengalo K, Osten Z, Kottam D, Hant L kabilar Jorj Eliot asarlarini nafaqat viktorian davr nuqtai nazaridan balki adiba asarlari roman talablariga javob bera oladimi yoki yo'q degan savolga ham atroflicha e'tibor qaratishdi [7, 14, 22, 20, 1, 8, 15]. Biz bu ro'yxatni davom ettirishimiz ham mumkin sababi adiba xaqida yo'zilgan asarlar juda kata hajmni tashkil etgani uchun asosiylarini keltirib o'tishni ma'qul ko'rdik. Asr ovozi sifatida e'tirof etilgan Jorj Eliotni har tomonlama o'rganishga harakat bo'lsada u ko'proq o'z davrida tanqidlarga uchradi. U yaratgan obrazlar ayniqsa ayollar obrazida nuqsonlar mavjud deb topildi. Uchinchi guruh tanqidchilarining fikricha viktorian romanda ayollar birinchi darajada tasvirlanmasligi kerak edi. Chunki aynan adiba ijobiy qilgan davrda

erkaklar ustunligi jamiyatda kuzatilgan. Mamlakat qonunlarida ham bu belgilangan edi. Ayollarning bu kabi baholanishi, erkining cheklab qo'yilganligiga e'tiroz Jorj Eliot tomonidan barilla aytiladi. Adibaning fikricha agar ayol roman yozishga layoqatli bo'lsa, yoki uning qobiliyati ilm fanda kashfiyot qilishga arzir ekan u munosib baholanisha loyiqdir deb xisobladi. Adiba ulg'aygan qishloq muhiti va u o'qigan maktab ta'limi qolaversa davr muhitini u cheklab o'tmadi. Dastlab maktabda Villiyam Vordsvors ijodini juda chuqur o'rgangan adibada uning ta'siri kuzatiladi. Jorj Eliot o'z asarlari kirish qismida foydalangan she'riy to'rtliklar muallifi ham Villiyam Vordsvors xisoblanadi.

Adabiyotshunos Shatlvors Salli "Jorj Eliot va XIX asr ilm fan: o'ziga bo'lgan ishonchning uyg'onishi" asarida Jorj Eliotda bo'lgan tafakkur mahsuloti intellektga urg'u beradi [23,175]. Shatlvors Salli ta'kidlashicha davr mahsuli bo'lgan viktorian romanda ayol intellekti namoyon bo'lishi bu jamiyatga yangi ayol qiyofasini olib kirayotganidan dalolat beradi. Ayollarning ilm fanga qiziqishi va ularning faoliyat olib borishiga to'sqinliklarni Jorj Elit "Feliks Holt" asarida urg'u berib o'tadi. Jamiyatni boligicha ko'rsatib berish hamda viktorian asrining uch bosqichida sodir bo'lgan o'zgarishlar mamlakatda birday ta'sir qilmaganligini qishloq misolida yoritib bergan adiba Jorj Eliot tanqidarga duch kelishi tabiiy edi. Adiba ijodida bir qancha ingliz adiblarning ta'siri ham kuzatiladi.

Dastlab ilk ijod mahsuli bo'lgan "Feliks Holt, the Radical" asari ijtimoiy asar deb baholandi. Tarixiylik nuqtai nazardan mazkur asarda "o'zgarishlar hosil qila oladigan viktorian g'oya" mavjud. Asar uch shaxsning hayotini keng talqin etadi. Harold Transom va Feliks Holt obrazlari misolida ikki xil o'zgarish qilish kerakligi ochib beriladi. Asar qahramoni bo'lgan yirik zodagon Harold Transom o'zgarishlar tarafdoridir. Ammo u tubdan keskin o'zgarishlar qilishi zodagonlar manfaatini birinchi o'ringa chiqarishini namoyon etadi. Asarda unga qarama qarshi tarzda Feliks Holt obrazi tasvirlangan. Yaxshi ta'lim olgan Feliks Holt hunarmandchilikni rivojlantirish tarafdori. U Harold Transom o'ylaganidek oq suyaklar uchun faoliyat olib borishni emas aksincha mamlakatda mayda hunarmandchilik rivoji oddiy aholi turmushini yaxshilaydi degan fikrni ko'proq olg'a suradi. Asaning asosiy qahramoni sifatida Ester Layon obraziga adiba keng e'tibor qaratadi. Ester Layon badavlat zodagon va e'tiborli ruhoniylar Rufus Layonning tutingan qizidir. Ester Feliks Holt bilan tanishar ekan uning ayollar xqidagi keskin fikrlariga o'z munosabatini bildirib o'tadi. Bu romanda viktorian davrining ayollarga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Ester Layon franstuz pansionatida zodagon qizlar ka'bi ta'lim olib, u o'zini endilikda Treby Magna shaharchasi yaqinidagi kichik Treby qishlog'ida o'zini zerikarli muhitga tushib qolganday his qilardi. O'z uyiga qaytib kelgan Ester pansionat hayotidan ko'ra gavjum shahar hayotini kutgan edi. Ammo tutingan otasi Rufus Layon ba'zan oq suyaklar uchun uyushtiriladigan kechalarga olib borardi. Ana shunday kechalardan birida u Feliks Holt va Harold Transom bilan tanishadi. Adiba jamiyatning old qatlam vakili bo'lgan Harold Transom va Feliks Holt obrazi orqali ayollar xaqidagi fikrlarni ochiq oydin ko'rsatib beradi. Feliks Holt buni quyidagicha ifoda etadi: *"Nazarimda siz ham barcha ayollar kabi bitta yo'ldan yuryapsiz. Bu yo'l erkaklar hayotini buzishdan boshqa narsa emas. Va erkaklar ham ayollarni sevishdan boshqa ilojlari yo'q, ular o'z o'zidan shu istakning qullariga aylinishadi. Bu toifadagi odamlar o'z hayotlarini bundanda yaxshiroq ishlarga sarflamay, aksincha shirinlikka yopishgan bolakay kabi ish tutishadi. Ayol erkaklar uchun mayda chuydalarni muhokama qilishdan boshqa narsani ko'ra olmaydigan suhbatdoshdir. Butun umr ayollar bilan pachakilashib o'tasan. Shuning uchun men agar sevib qolsam demak ana shunday suhbatdosh topgan bo'laman ammo unga uylanmayman"* [10, 175]. Bunday fikrlarni eshitgan Ester quyidagicha javob beradi: *"O'ylaymanki, siz o'z haqiqatingiz bilan juda ko'p maqtanasiz, Janob Holt, bu fazilatingiz odamlarga zarar yetkazadi deb o'ylamayman, haqiqatni aytish-bu ko'pincha adolatli fikrlash degani emas"* [10, 176]. Feliks va Ester or'tasida dastlabki suhbatlar ana shu yo'sinda ro'y eradi. Qanchalik achchiq bo'lmasin Jorj Elitoning real manzarani tasvirlashi tanqidlarga birinchidan sabab bo'lgan bo'lsa ikkinchidan u haqiqatda ayollarga bo'lgan munosabat ham o'zgarishi kerak degan xulosani beradi. Feliks fikricha mayda chuydalarni muxokama qiluvchi suhbatdosh dunyoqarashi chegaralangan. U bilan turli mavzularda suhbatlashib bo'lmaydi. Xatto bolalarcha fikr yurituvchi bina suhbatlashish o'rniga foydali ishlarni amalga oshirgan ma'quldir. Feliks qarshisida turgan oliy nasab qiz ham tutingan otasi Rufus Layon nazoratida. U kuchun Ester Layon Rufus Layon aytgan chiziqdan chiqmaydi. Janob Rufus Layon maqsadi esa qaromog'iga olgan qizini yaxshi joyga turmush berishdir. Garchand Feliksing Ester xaqidagi o'y xayollari janob Rufusnikiga o'xshash bo'lsada, u Esterda ilg'ay olmagan jixatlar mavjud. Bu asar voqealari davomida ko'rina boshlaydi. Asarning asosiy dialoglarini mana shu uch qahramon Feliks, Harold va Ester o'rtasidagi munosabatlar tashkil qiladi. Muallif aynan ikki qahramon misolida radikal ya'ni tub o'zgarishga ko'p marotaba urg'u beradi. Bu adibaning haqiqatda jamiyatda ro'y berishi kerak bo'lgan o'zgarishni qolaversa ayollarning jamiyatda tutgan o'rnini ham ifoda etadi.

Nazarimizda Feliks qarshisida turgan Esterni tarbiyalashga muhtoj deb tushunadi. Uning fikriga ko'ra ester mustaqil fikrlay olmaydi va u hamisha janob Rufus tasarufida. Janob Rufus esa Haroldning qarashlarini qo'llab quvvatlovchi shaxsdir. Ehtimol mana shu sabab muallif janob Rufus kabi oq suyaklar jamiyatiga ta'sir ko'rsata olish uchun Feliks obrazini yaratgandir. Feliks Harold kabi badavlat oila vakili emas. U o'zi uchun o'zi qayg'ura oladigan mustaqil shaxsdir. U Ester bilan ilk marta tanishar ekan uning go'zalligiga o'zi ham maftun bo'lganligi inkor etmaydi. Ammo bu go'zallik sohibasi u kutgan suhbatdosh emasligini adiba asarda quyidagicha ifoda etadi: *"tovus, tovusning o'zginasi, bu yerga uni ko'rib turish uchun tez-tez kelib turish kerakka o'xshaydi, natijada o'zi ko'z yoshlarga ko'milishini o'zi anglamaydi"* [10, 71]. Feliksning qiz xaqidagi keskin fikrlari asar davomida yanada yaqqol ko'rina boshlaydi: *"O'n to'qqiz yoshga xos takabburlik, qanchalik tarbiyalanishga muhtoj, mavqeiga yarasha darajada emasligi kunday ravshan"* [10, 73]. Garchand qizning kamchiliklarini ko'rsata olsada, unga yetarli baho berishga qodir emasligini yaxshi tushunadi. Janob Rufusning oq suyaklar davrasida tutgan mavqe bilan Feliksni taqqoslab bo'lmaydi. Yaxshi ta'lim olgan bo'lishiga qaramay u oq suyaklar kutgan nasl nasab va boylikka ular kabi ega emas. Faqatgina uning bilimi, o'zini tutishi va ularga xos fikrlashigina ular davrasiga kirishiga sabab bo'la oladi. Ammo bu Harold kabi fikrlashini anglatmaydi. Feliks maqsadi qanday bo'lmasin zodagonlarni o'ziga ishontira olish va u kutgan o'zgarishni

Trebida amalga oshirishdir. Ayrim hollarda Esterning unga bo'lgan tanqidini eshitganida buni o'rinli deb hisoblashi qahramonni bizga ijobiy sifati mavjudligini ko'rsatadi. Ester unga nisbatan quyidagicha fikr bildiradi: *“Siz mayda chuyda narsalar bilan band bo'lishingiz qanday achinarli! Bu bilan maqtanasiz ham. Ayni paytda sizni tushunish ayollar safiga o'tib qolayotganingizni buldiradi. Siz buni yomon ko'rishingizni bilaman, ammo mana shu mayda chuydalar ortidan siz ham maydalashib qolyapsiz. Erkaklarga xos teran fikrlaringizni eshitmayapman”* [10, 121]. Feliks esa qizning o'zgarishini istagan holda bir necha bor *“O'zgarishingizni istayman”* deya qaytaradi. U tom ma'noda Esterning o'zgarishini u bilan hamqadam bo'lishini chin ko'ngildan istay boshlaydi. Feliksdan farqli o'laroq qizning e'tiborini Harold tortadi. Harold Esterning go'zalligini Feliks singari tan oladi. Qizning e'tiborini tortish uchun bir necha bor kechalarga shaxsan o'zi taklif qiladi. Janob Rufusning qizi bilan kechalarga kelishi ikki yigitning hayolini tobora ola boshlaydi. Harold Esterni o'zining umr yo'ldoshi bo'lishi istaydi. Ester u uchun munosib juftidir. Janob Rufusga ham bunday taklif ma'qul keladi. U Esterni zodagon oq suyaklar kabi yashashini istaydi. Biroq janob Rufus tutingan Esterning franstiyada ta'lim olganligini va o'zidagi kamchilikni ko'ra olishini va uni yo'qota olishini bilmaydi. U oq suyak zodagon qizlar kabi yengiltaklik, takabburlik qolaversa kezi kelganida badavlat yigitga turmushga chiqib unga tobe bo'lib yashash xohishi kuchli emasligidan bexabar. Ester qizlardagi bunday sifatlanini oddiy holat deb tushunar yoki oq suyaklar nasliga xos xulq deb atardi. Shuning uchun oq suyaklarni xush ko'ruvchi otasiga ko'glini ochmasdi. U shunchaki janob Rufusning tutingan qizi saifatida yaxshi hamroh edi.

Adiba asar voqealari rivojida Feliksning Esterni xafa qiluvchi dilxirali manzaralarini xam tasvirlaydi. Ayollarni gohida o'ziga teng ko'rishi, gohida esa teng ko'rmasligi Esterni ranjitadi. Teyl J. Jorj Eliot yaratgan Ester obrazi misolida adabiyotga qadam qo'ygan Eliot va unga bildirilgan munosabatning bir tekisda bol'maganligiga e'tibor qaratadi. Teyl J adiba *“Feliks Holt”* asari nashr etilganida so'ng o'zi ham Ester axvolini boshidan kechirgan [24, 57]. Ester obrazi o'zidagi kamchiliklarni to'g'irlay olishi va buni ko'ra olishi ayolning obrazining mukammal qiyofasini yaratishga urinishi kuzatiladi. Feminist Armstrong Nensi esa Jorj Eliot viktorian ayol ibrat olgulik sifatiga ega ekanligi va bu asarni obrazini to'ldirib turuvchi fazilat ekanligini bildirdi [3, 44].

Asarda adiba Esterning ikki qiyofasini yarata olganligiga guvoh bo'lish mumkin. Birinchisi Feliks munosabatiga tog'ri javob bera oladigan o'qimishli Ester, ikkinchisi ko'nglini olishiga qaramay unga tobe bo'layotgan Ester. Feliksga u o'z fikrini aytishdan to'xtamaydi, Haroldga qarshisida esa baxslashishga hojat yo'q. Harold qizning fikrlarini o'ziniki singari bir xil deb qabul qiladi va Ester bilan bahslashmaydi. Haroldning Trebi Magnada uyushtiriladigan kechalarda so'zlagan nutqlarida uning qat'iyatli ovozi eshitaladi. U mamlakatda sodir etilayotgan o'zgarishlarni birdek Treby Magnada ham bo'lishini istaydi. Ammo buning uchun zodagonlar ko'magiga muhtoj. Qarshisida uning fikrlariga e'tiroz bildiruvchi Feliks ham bor. Feliksning Esterga ta'sir qilishi mumkinligi uning Esterga yetishishiga to'sqinlik qilishi ham mumkinligi Haroldni bezovta qiladi. Ester esa Haroldga qaraganda Feliks hayotga teranroq qarashiga undashini asar oyakunlarida tan oladi. Feliks bilan suhbatlashgan Ester qalbida allanechuk hislar ham uyg'onadi. Ammo Ester bu xaqda xulosa qilishga shoshilmaydi. Esterning keng mulohaza qilish xususiyati Charlotta Bronte yaratgan Jeyn Eyr, Elizabet Gaskell yaratgan Margaret yoki Molli yoki Margare Olifantning miss Mejoribenkslarga xam xosdir. Mushoxada etish ayniqsa qizlarning nozik tuyg'ularini tasvirlashga uringan viktorian adibalarda haqiqatda noziklik namoyon bo'ladi. Qalbida tug'yon urayotgan tuyg'ularni oshkor etishga shoshilmagan viktorian qizlarning fe'l-atvorini va xarakterini davr bilan uyg'unlashtira olganligi aks etadi.

Asar yakunida Jorj Eliot yaratgan Ester katta mulk sohibasi bo'lib chiqadi. U Transomlar mulkining teng yarmiga egalik qiladi. Bu asar boshida tasvirlangan Esterning orzusi edi. U yuqori martabali kechalarda ishtirok etar eka ular kabi bir qatorda teng bo'lish istagi mavjud edi. Faqat bu istakni o'yobga chiqishiga Feliks to'sqinlik qilardi. Jorj Eliot asar qahramonini zodagonlar davrasiga kiritib o'ziga o'zi baho berishiga majbur qiladi. Hashamatli kechalarda zodagon xonimlar suhbatlari ba'zan Ester kutganidek bo'lmasdi. Ester atrofdagilar uchun franstiyada ta'lim olgan madaniyatli qiz bo'lib ko'rinadi. U zodagonlar rioya qilgan odob-axloqqa ega bo'lishi va o'zini shunaqa tutishi kerak. Bu chegarani u hatlab o'ta olmaydi. Janob Haroldning onasi bilan tanishgach esa u shunday bo'lishi kerak deb xisoblay boshladi. Esterning kata mulk sohibasi bo'lganligini eshitgan Feliks esa shunday fikr bildiradi: *“U har doim shunday bo'lishi kerakigi xaqida o'ylardi. Oq suyak zodagonlar orasida bo'lishi va ular kabi hayot kechirish uning istagi bo'lganligi kunday rashan edi menga”* [10, 367]. Hashamatli hayotga ko'chgan Ester Trensomlar uyida yashar ekan atrofni bo'shliq qurshab olayotganday tuyuladi. Endi u o'zi istagandek zodagon u erishishi mumkin bo'lgan orzusiga yetdi. Faqat negadir bo'shliq atrofni qurshab olmoqda. Ester endi oldingidek hayotini ziyofatlarda va bemani bachkana hazillarni eshitish bilan o'tkazadimi yoki Feliks aytganday bo'shliqni mazmundor hayotga aylantira oladigan maqsad topadimi. Esterning bu kabi xayollari Charl'z Dikkensning *“Jajji Dorrit”* asaridagi jajji Dorritga yoki Elizabet Gaskellning meros egasiga aylangan Margaret va Charlotta Brontening amakisi qoldirgan meros sohibasi Jeynga o'xshab ketadi. Viktorian yozuvchilarida kuzatilgan meros egasiga aylanish deyarli barcha asarlarda tasvirlanadi. Bu xususiyat davr an'analari bilan bog'liqdir. Viktorian davrda vujudga kelgan jentlmen va ledi bo'lish uchun qator talablarga javob berishi kerak edi. Bu nasl nasab, meros egasi va yaxshi ta'limga ega bo'lish zarurati. Viktorian romanlarda mana shu uch sifat qahramonlar taqdirida egallanishi kerak bo'lgan xususiyatdir. Asar qahramonlarini oddiy hayotdan boshlab yakunida hashamatli hayot bilan yakun toppish zarurati adabiyot aks eta boshlagandi. Obrazdagi ta'rif-tavsif, ya'ni xarakteristika kishiga xos xususiyat va sifatni aniqlashga xizmat qiluvchi belgilar, muallif tomonidan qahramonga berilgan ta'rif-tavsiflar asar qahramonining kelib chiqishi, faoliyati, xulq-atvori, axloq-odobi, idroki, qobiliyati, intilishi, tashqi qiyofasi haqida xarakterning ma'lum bir tip hosi bo'lganligini ko'rsatadi.

Viktorian adibalar tomonidan yaratilgan ayollar obrazlarida ko'p qirralilik uchraydi. Chunki xarakterning muayyan alohidalikdan iborat ekanligi obrazda namoyon bo'la boshlaydi. Yozuvchi ijodida har bir xarakterning o'ziga xosligi shundaki, ijodkor o'zining asosiy e'tiborini shu obrazning barcha xususiyatlarini o'zaro bog'lab turuvchi

etakchi belgilarga qaratadi. Jorj Eliotning “Feliks Holt” asaridagi Ester, “Middlemarch” dagi Doroti, “Daniel Deronda”dagi Gvendolen obrazlarida yuqorida aytilgan jihatlar ko’zga tashlanadi.

Jorj Eliot ayol obrazini yaratar ekan, uning qanday shakllanganligini u yashaydigan muhit bilan uzviylikda tasvirlaydi. Viktorian ingliz ayolining tipik ko’rinishi uning qiyofasida ham, uning kiyim-kechaklarida ham, xarakterida ham o’z ifodasini topgan. Esterning shakllanishi ham voqealar rivojida bir xil kechmaydi. Unig biran o’zgarishi tutingan otasi Janob Rufusning o’z otasi ekanligini bilganidan so’ng sodir bo’ladi. Ester barchasini unutib oldingiday yashashi mumkin. Muallif buni Ester o’y xayollari orqali keng ko’rsatishga urinadi. Ammo uning adolatli qalbi o’z otasi bo’la turib xamisha uni bitta qolipda tutishga uringan janob Rufusni xazm qila olmaydi. Oradan bir necha haftalar o’tsa ham hashamat ichra yashayotgan Ester Feliks aytganidek yarim qayg’uli, yarim quvonch ichida. Ester mol-mulk sohibasiga aylangach asar sahnasidan Feliks Holt g’oyib bo’ladi adiba buni uni qarzi tufayli qamalishini qisqa tasvirlaydi. Harold oldida to’siq olib tashlanadi, Ester endi oldingidek emas. Harold onasining iliq munosabatiga va uni qabul qilishiga tayor ekanligini va haroldning o’zini tobe qilishga urinishini sezgan Ester uni batamom rad etishi asarning kulminatsion cho’qqisini ko’rsatadi. Qamoqxonada Feliksni ko’rishga kelishi va uning to’lashi lozim bo’lgan pulni to’lab olib chiqishi Ester obrazining bo’rttirib tasvirlanganini namoyon etadi. Viktorian davrda ayolning bunday qilishi ehtimoli ishonarsiz haolat edi. Bu xaqda Eliotshunoslarning bir nechitasi to’xtalib o’tadi. Jumladan Bunn Jozef Ester obrazi tipidagi ayol viktorian davriga xos bo’lmagan deb xisobladi[6, 49]. Uning fikricha hech qanday xuquqqa ega bo’lmagan ayol jamiyatda to’satdan mol-mulkka ega bo’lishi ishonarli emas. Bunday obraz yaratgan adiba o’zidagi dadil jur’atni Esterda aks ettirgandek namoyon bo’ladi. Esterdagi qati’yat va dadil qadam tashlash adibaning o’zidan olingan deb xisoblash mumkindir.

Asar Esterning Feliksga turmushga chiqishi va oddiy hayotda yashay boshlashi bilan yakun topadi. Asarda kutilgan radikal o’zgarishlar ikki qahramonda mavjud bo’lsada qisman bu o’zgarishlarni Harold amalga oshiradi. Asarning bunday yakun topishi orqali adiba ikki qahramonga tog’ri yo’l topishiga imkon beradi. Asarda talqin etilgan qahramonlar taqdirida o’zini o’zi tahlil qila olishi orqali inson psixologiyasini ham ochib beradi. Adabiyotshunoslikda o’z-o’zini tog’ri va o’ziga tanqidiybaholashni olib kiradi. Shuning uchun adiba qahramonlarida inson psixologizmini tubigacha kirib borishi yaqqol namoyon bo’ladi. Atrofdagi ijtimoiy muhit va asarning ijtimoiy xususiyatlari uyg’unlik kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Austen Z. Why Feminist Critics are Angry with George Eliot // *College English*. National Council of Teachers of English. 1976. Vol 37. № 6.–549-561 p.
2. Ashton R. George Eliot. London: Hamish Hamilton. 1983. – 465 p.
3. Armstrong N. Desire and Domestic Fiction: A Political History of the Novel. Oxford: Oxford University Press. 1987. – 430 p.
4. Bodenheimer R. The Real Life of Mary Ann Evans: George Eliot, Her Letters and Fiction. N.Y: Ithaca. 1994. – 230 p.
5. Byatt A. George Eliot: Selected Essays, Poems and Other Writings. Harmondsworth: Penguin. 1990. – 260 p.
6. Boone J. Tradition Counter Tradition: Love and the Form of Fiction, Chicago: University of Chicago Press. 1987. – 360 p.
7. Carroll D. George Eliot: The Critical Heritage. London and New York: Routledge & Kegan Paul. 1971. – 250 p.
8. Cottom D. Social Figures: George Eliot, Social History, and Literary Representation. Minneapolis: University of Minnesota Press. 1987. – 450 p.
9. Dodd V. George Eliot: An Intellectual Life. New York: St. Martins Press, 1990. – 230 p.
10. Eliot G. Felix Holt, the Radical. London: Penguin books. 2010.– 450 p.
11. Hughes K. George Eliot: The Last Victorian. New York: Farrar, Straus & Giroux. 1999. – 250 p.
12. Haight G. The George Eliot Letters. 9 vols. New Haven: Yale University Press. 1954. –230 p.
13. Harris M. The Journals of George Eliot. Cambridge: Cambridge University Press. 1998. – 210 p.
14. Hardy B. Critical Essays on George Eliot. London: Routledge & Kegan Paul. 1970. – 270 p.
15. Hunt L. A Woman’s Portion: Ideology, Culture and the British Female Novel Tradition. New York: Garland. 1988. – 350 p.
16. Levin G. The Cambridge Companion to George Eliot. Cambridge: Cambridge University Press 2001. – 340 p.
17. Laski M. George Eliot and her World. New York: Charles Scribner’s Sons. 1973. – 230 p.
18. Lewes H. George Eliot: A Life. Harmondsworth: Penguin Books. 1997. – 370 p.
19. Pinney Th. Essays of George Eliot. New York: Columbia University Press. 1963. – 250 p.
20. Pangallo K. The Critical Response to George Eliot. Westport. CT: Greenwood Press. 1994. – 280 p.
21. Ruby R. George Eliot: The Emergent Self. New York: Knopf. 1975. – 120 p.
22. Stuart H. George Eliot: Critical Assessments. 4 vols. Mountfield: Helm Information. 1996. – 230 p.
23. Shuttleworth S. George Eliot and Nineteenth-Century Science: The Make Believe of a Beginning. Cambridge and New York: Cambridge University Press. 1984. –340 p.
24. Thale J. The Novels of George Eliot. New York: Columbia University Press. 1959. – 270 p.
25. Uglow J. George Eliot. London: Virago Press. 1987. – 320 p.

Rezyume. Maqolada viktorian davrining mashxur adibalaridan bo’lgan Jorj Eliot ijodi tahlil qilingan. Jorj Eliot ijodini o’rgangan adabiyotshunos olimlar uni viktorian asri ovozi bo’lganligini e’tirof etishadi. Bu ovoz eliotshunoslar tomonidan uch xil o’rganildi. Birinchisi adibaning avtobiografiyasi, ikkinchisi intellekt, uchinchisi esa ayol muammosini adibaning asarlari misolida qamrab olindi.

Tayanch so’zlar: viktorian asri, asar, ayol muammosi, obraz, xususiyat, radikal

Резюме. В статье анализируется творчество Джорджа Элиота, одного из самых известных писателей Викторианской эпохи. Литературоведы, изучавшие творчество Джорджа Элиота, признают, что она был голосом викторианской эпохи. Этот звук изучался эеолитами тремя способами. Первый был автобиографией пистельницы, второй-интеллектом, а третий охватывал женскую проблему в творчестве Джорджа Элиота.

Ключевые слова: викторианская эпоха, роман, проблема женщин, образ, характеристика, радикал

Summary. The article analyzes the work of George Eliot, who was one of the most famous writers of the Victorian era. Literary critics who have studied George Eliot's work admit that she was the voice of the Victorian era. This sound was studied by